

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI BA’ZI ETNONIMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

**Xosiyat BAYMURATOVA,
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi**

Etnonim o‘z tahlillarida tilshunoslikdan tashqari tarix, etnografiya, geografiya, psixologiya, dinshunoslik va boshqa fanlarning ilmiy usullaridan ham foydalanadi.

Har qanday etnonimning o‘z ma’nosi bor. Ko‘pgina etnonimlar juda qadimiyo so‘zlar bo‘lganidan xalqlar etnogenezini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega... Odadta xalqlar, shuningdek, qabilalar, yirik urug‘larning nomlari qadimiyo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq kabi millat nomlari, qo‘ng‘iroq, mitan, qangli, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug‘qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari uzil-kesil hal qilingan emasligini professor S.Qorayev ilmiy izohlab o‘tgani.

Etnonimlar xalq tarixi va tili uchun qimmatbaho material hisoblanadi¹. “Firdavs ul-iqbol”da dunyo yaralishidan boshlab to XX asrga qadar uchraydigan etnonimlar mavjud. Ma’lumki, etnonimlar tarix taqozosи bilan vujudga kelgan bo‘lib, ma’lumot-axborot tashish uchun xizmat qiladi. Etnonimlarni o‘rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Biron-bir hududda o‘tmishda qanday xalqlar yashaganligi, muayyan etnonim qaysi xalq, elat, qabilani bildirganligini bilish uchun ham etnonimlarni, ayniqsa, tarixiy asarlarda uchrovchi urug‘, qabila nomlarini tadqiq qilish ilmiy ahamiyatga egadir.

Insoniyat bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug‘ bo‘lib, keyinchalik esa hududiy-dialektal umumiylig hosil qilib, qabila-qabila bo‘lib yashagan. “Odam”, “inson”, “o‘zimizning kishilar” kabi ma’nolarni anglatgan ar (er), mann (men) tipidagi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo‘lgan. Bir qancha etnonimlar “haqiqatan odam”, “rostakam inson” degan ma’nolarni bildiradi. Tatar, hazar, majar, avar, bulg‘or kabi xalq va qabila nomlari tarkibidagi ar (er), ir qo‘sishimchasi eroniy tillardan birida «odam» degan ma’noni bildirgan va keyinchalik turkiy tillarga o‘tgan.[S.Qorayev] “Firdavs ul-iqbol”da qo‘llangan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. Asar tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib

¹ ЭТНОНИМ. – М.: Наука, 1970.; Кораев С. Этнонимика. Тошкент: Ўзбекистон, 1979. 10-11-6.

chiqqan. Munis va Ogahiyalar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma’nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko‘p holda ilmiy jihatdan munozarali bo‘lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko‘rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o‘z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko‘pchiligi lisoniy jihatdan tahlil qilinganda, ular turkiy, eroniy, mo‘g‘ul va arab tillariga mansub ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Asarda keltirilgan etnonimlar orasida tarkibida kishi ismlari, nasl-nasablari ham uchraydi: Alieli, Jamshidiy, Jo‘chi eli, To‘qtomish, Hasan eli, Xorazmiylar, Qaroahmad, chig‘atoy, qaroxonli, shayx, Eshquli qo‘ng‘iroq kabilar: “...Va Berka Sulton chig‘atoy elig‘a chapovul urub, diyorig‘a yondi”; **joy nomlaridan** kelib chiqqan etnonimlar ham bor: orolli, soylik va boshqalar. O‘zbek etnonimlarini semantik jihatdan bir necha guruhga bo‘lish mumkin, chunonchi, biron **kasb-hunar** nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: bolg‘ali, bo‘zachi, bakovul, tevachi, iyarchi (egarchi), qangli, qongli, qanqli, sayot (sayyod-ovchi), tulkichi, zargarlik, mirishkor, po‘latchi va boshqalar. Tarkibida rang-tusni ifodalovchi so‘zlar mavjud etnonimlar: ko‘ko‘zakli, olosha (soriq), Soriq, soruq, qaroxo‘ja, qizilbosh, qizilboshiya, eski, Tarkibida sonlar mavjud etnonimlar: to‘rtqaro, uch o‘q, o‘n to‘rt urug‘, yuz, ming nayman, va boshqalar. “Andoqkim, uyg‘ur, nayman, bir to‘pa. Do‘rmon, yuz va ming jamoasi uyg‘urg‘a qo‘shuldi”.

Asarda qo‘llangan urug‘larning o‘ziga xos etimologiyasi bor. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz va shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, quyidagi etnonimlar etimologiyasi haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan, binobarin aksariyati bir to‘xtamga kelingan variantlar emas.

Abdol urug‘i Hindiston, Afg‘oniston va xususan O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o‘ynagan qadimiy xalq-eftalit, ya’ni haytallarning avlodidir. Haytallar (eftalitlar) Suriya, Yunon manbalaridayoq abdel deb atalgan.

Tarixchi Bal’amiy (X asr) fikricha, haytal so‘zi Buxoro tilida “pahlavon”, “jasur odam” degan ma’noni bildiradi. “Abdoldin Muhammadqilich bahodir aqo-inilari bila, uyshundin Xo‘roz qiyshiq o‘g‘lonlari bila jinohi istijol bila ilg‘or qilib...”[FI:91].

Barlos – Temuriylar va boburiylar davrida, asosan, O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida, qisman Afg‘oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan o‘zbek qabilalaridan biri[IL1: 169]. O‘zbekiston hududida, asosan, Qashqadaryo vohasida ko‘chmanchi o‘zbeklardan chig‘atoy ulusiga qo‘riqlash uchun yuborilgan 4 ta qabilalardan biri sifatida ham ma’lumotlar keltirilgan. Barlos so‘zi Abulg‘ozixonning fikricha “qo‘mondon”,

Alisher Navoiy asarlariga yozilgan “Badoye ul-lug‘at”ga ko‘ra “bahodir” degan ma’noni bildiradi. “Aning ayyomi hukumatida Erumji barlos valadi Qochuli bahodir vafot topti”[FI:70].

Qipchoq – kelib chiqishi jihatidan turk-mo‘g‘ullarga mansub qabila. XI – XV asrlarda Uralbo‘yi va Volgabo‘yi dashtlarida va hozirgi Qozoqistonning markaziy va g‘arbiy qismlarida yashagan, keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan ko‘chmanchi turkiy xalq. O‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy urug‘-qabilalardan biri [O‘TIL5:297]. Qoraqalpoq qipchoqlari o‘n to‘rt urug‘ qoraqalpoq tarkibiga kiradi.

Qipchoqlar Yangibozor, Beshyop hududlarida va Amudaryo bo‘limining Chimboy, Ko‘ko‘zak, Nukus hududlarida yashagan.

1912 – 1913-yilgi ro‘yxatdan ma’lum bo‘lishicha, Beshyopda 399, Ko‘ko‘zakda 196, Nukusda 153, Chimboyda 469, Yangibozorda 215, Navparda 68 xo‘jalik yashagan. Qoraqalpoq qipchoqlarining soni, Xiva Davlat arxivi ma’lumotiga qaraganda, 2 mingga boradi.

Qipchoqlarning ko‘pgina qismi Qipchoqyof atrofiga, Kegeylining o‘ng qirg‘oqlariga joylashgan. Qipchoq qal‘a, Oqjoqish atroflarida ham qipchoq qabila urug‘larining yerkari bo‘lgan. Xiva Davlat hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, qipchoqlar 1020 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 224 navkar, 672 qazuvchi berishga majbur bo‘lgan. XIX asrda qipchoqlarning Pirmuhammad, Beknafas, Sarim, Rajab, Oluchi, Xoniyor, Pahlavon Niyoz, Xolmuhammad, Qulmurod kabi biylari: Jonmuhammad, Hasanboy kabi harbiy boshliqlari bo‘lgan.

“...otini Qipchoq qo‘ydi. Qadim turk tilinda ichi bo‘s sh yog‘ochni qipchoq derlar erkandur. Aning uchun ul o‘g‘lon yog‘och ichinda tug‘di teb, otin qipchoq qo‘ydilar. Bu vaqtda ham ichi bo‘s sh yog‘ochni qipchoq deytururlar. Qora xalqning tili kelmasligidan qofinchim o‘qiy tururlar”².

“Firdavs ul-iqbol” asarida qipchoq etnonimi ham o‘zbek ham qoraqalpoq qipchoqlariga nisbatan qo‘llangan: Qangli, qipchoq bir to‘pa. Alarg‘a o‘n to‘rt urug‘ qo‘shulub, o‘n to‘rt urug‘ ot ko‘tardi.[FI:91, o‘zbek] Bu mazmun bilakim “tag‘omizdain bag‘oyat minnatdormizkim, biz xitoy-qipchoq ustig‘a ketganimizda kamoli muruvvat va do‘stlig‘din yurtimizg‘a chapovul buyurmaydurlar”

Ochamayli (Achamayli) – yuz urug‘ining bir bo‘lagi. Ho‘kiz yoki qo‘tosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay deyilgan. Demak, bu urug‘ning tamg‘asi egar shaklida bo‘lgan. Etnograf N.A.Aristov

² O.Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

ochamayli urug‘i och (ach) degan qadimgi qabila nomi bilan atalgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Ochamoyli qabilasi ba’zi manbalarda oshamoyli deb ham yuritiladi. “Firdavs ul-iqbol”da ochamoyli bo‘lib ishlatalilgan. Ochamoyli asli qoraqalpoq qo‘ng‘irotishulluk bo‘limi tarkibidagi qabila. Ushbu qabila 13 urug‘dan tashkil topgan. XIX asrning o‘rtalarida ochamoyli qabilasi 790ga yaqin xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka har yili 260dan ko‘p qazuvchi berish majburiyatini bajarib kelgan.³

Asarda ham shunday o‘rinlarda qo‘llangan: “Ul kun aholii Orolg‘a raabu haros istilo tamom topib, **ochamoyli** va **ko‘ko‘zaklikim**, Qo‘ngrotning muazzam qaboilidindur, ul ikki uruqning ba’zi akobiri suddai xilofat mulozimlarig‘a yashirin kishi yubordilar.” [364-bet]

Tobin (qazoq) – mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, “ellik” demakdir. Umuman turkmo‘g‘ul qabila va urug‘larida raqam (son) bilan ataladigan nomlar uchraydi. Masalan, yuz, ming, do‘rmon (do‘rbo‘n – mo‘g‘ulcha do‘rt – “to‘rt”) va hokazo.

“Shavvol avoxiri(1223-yil 25-shavvol/ 1808-yil 14-dekabr)da ul qal‘adin chiqib, qazoq tavoifidin tobin elining savdogari bila kelur erdi”[FI:275]. Asarda keltirilgan mazkur parchadan ham tarixiy manbalarda keltirilgan quyidagi ma’lumotlarni ham keltirib o‘tish lozim. Tobin urug‘idan bo‘lgan qozoqlar XIX asrda Sirdaryo bilan Ustyurt yaylovidan Tobol daryosi va Orenburg dashtlarigacha bo‘lgan hududda yashaganlar. Tobinlar, shuningdek, o‘zbeklar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham uchrovchi qabila va urug‘lardandir. kichik yuz qozoqlari yetti urug‘ qabilasi tarkibidagi urug‘ bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida Xorazmda xonali to‘ra tomonidan boshqarilgan. Ularning Irisboy yasovul, Eshniyoz, Sori kabi biylari va Ollosh, Jonibek kabi bahodirlari bo‘lgan.

Mang‘it (manqit) – o‘zbek va qoraqalpoq qabilasining nomi. Oris o‘n to‘rt urug‘ tarkibiga kirgan qabila. U qabilaga to‘rt guruhga bo‘lingan 19 urug‘ kiradi;

- a) Qoratov urug‘lari: qora mang‘it, qora siraq, oq mang‘it, moliki, ko‘sar, kilkali (xilxali);
- b) Soritov urug‘lari: orshon, jonliq, to‘q mang‘it, ershori, toza jolliq, shuyit, jomonsho, eseba, tamg‘ali, tong mo‘yin, temir xo‘ja;
- c) Bo‘ztov, oldin urug‘larning katta birlashmasi hisoblangan, hozirgi vaqtida bir urug‘ nomiga mansub bir qancha xo‘jalik mavjud;
- d) Jetimtov, eshbuga tarkibidagi urug‘ bir qishloqda qolgan.

³ O. Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

Mang‘it qabilasining umumiy soni 11791 kishi hisoblangan. 70 foizi Kegaylida yashagan.

1928-yillardayoq Qozog‘istonni o‘rganish Jamiyati ekspeditsiyasining ko‘rsatishicha, ko‘p sonli mang‘it urug‘lari uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan. Buxoro xonligidagi o‘zbek mang‘itlari ham uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan. FIda o‘zbek mang‘itlari qoraqalpoq mang‘itlariga nisbatan ko‘proq qo‘llangan. “Qochib qutulg‘onlarg‘a xon Eshmuhammad biyning say‘i bila Yangiariqni marhamat etib, muvoidi xusravona bila diljuliq ko‘rguzdi”[FI:100].

Xiva Davlat arxivi ma’lumotlaridan aniqlanishicha, mang‘it qabilasi uch tebadan: oq mang‘it – julut onja 75 otli, 375 xo‘jalik 5 biy; Uchtoy – 59 otli, 295 xo‘jalik, 2 biy; qora mang‘it – 88 otli, 440 xo‘jalik, 4 biylikdan iborat bo‘lgan.

XIX asrning II yarmi – XX asrning boshlarida mang‘itlarning Xudoynazar va Sohib Nazar, Yusuf, Do‘stmuhammad, Usmon, Davlat kabibiylari; To‘lobbergan kabi yuzboshilari bo‘lgan.

Qiyot – o‘g‘uzlar tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan birining nomi. Abulg‘ozi Bahodirxon fikricha, mo‘g‘ulcha “tug‘dan oqqan sel” ma’nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligidir. Qadimgi turkiy manbalar hamda eski turkiy manbalarda -t, -at, -ot affikslari orqali ko‘plik hosil qilingani ko‘pgina tarixiy leksemalar orqali ma’lum. Bu fikrni V.V.Radlov ham isbotlaydi. Bundan chiqadiki, qiyonni (qiyonli) urug‘ining etimologiyasi ham o‘scha mo‘g‘ulcha qiyon so‘zi bilan ma’nodosh, deya aytish mumkin. Mazkur urug‘ nomi asarda ham qiyot (o‘zbek), ham qiyot (qoraqalpoq), ham qiyot qo‘ngrot urug‘lari sifatida qo‘llangan.

Misol: “...Salloq sardor rufaqosi bila Qo‘ngrotni poymoli turtkoz qilib, ...qo‘ngrot va o‘zga ellardinkim, aning bila muxolifat amrida muttafiq bo‘lib erdilar, ikki yuz kishi yig‘nab, qiyot mufsidlaridin Suyunbiyning oqosi Qurbonbekni sarkarda qilib, qaroqalpoq eylotin chopturmoqg‘a namzod qildi”. (344-bet).

Qiyot qabilasi Oris qo‘ng‘irot Shulluk bo‘limi tarkibidagi qabila. Uchtamg‘ali, taroqli va bolg‘ali urug‘larining ba’zan qiyot qabila tarkibiga kirib qolganini uchratamiz.

Arxiv ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, qiyotlilar 443 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 88 navkar, 262,5 qazuvchi berishga majbur bo‘lgan. Taxminan XIX asr o‘rtalarida xonlikka yiliga 442,5 tilla soliq to‘langan.

Qiyotlarning Sodiq, Sayid, G‘ozi, Qodirbergan biy, Abdullo, Jumaniy, Hasan kabi harbiy boshliqlari bo‘lgan.

Bayot – “Bayotning ma’nosи davlatli temak bo‘lur”

Sort – urug‘ nomi. Sart – oktabr revolyutsiyasigacha urug‘larga bo‘lininshni yo‘qotgan bir qism o‘troq o‘zbeklar sart deb atalgan. Yevropaliklar Oktabr revolyutsiyasigacha hozirgi O‘zbekiston hududidagi mahalliy aholi vakillarini sartlar deb atashgan. Rus sayyohi Danilevskiy yozadi: “Sartlar xonlikda yashovchilarning o‘zagini tashkil etuvchi va o‘troqlikda ustunlikni tashkil etgan qabila. Osiyoliklar xivaliklarning hammasini sartlar deb atashadi. Ular shaharda yaxshi hayot kechiradilar, dehqonchilik hamda savdo ishlari bilan shug‘ullanadilar. Xon bilan qushbegini hisoblamaganda hukumat xodimlari sartlardan. Hamma vazifa – izzat-hurmat, shahar va xon mol-mulkini boshqarish ham shularga topshirilgan. Xonlikda sartlar XIX asr o‘rtalarida 20 ming xo‘jalikni tashkil etgan”.

Misol: Amoratpanoh va ayolatdastgoh Boltaniyoz oqo va Muhammadamin oqo va Ko‘chak arbob va Muhammad arbobnikim, **sort jamoasi** (Xorazmning asl mahalliy o‘g‘uz xalqi)ning marjai ilayh (murojaatgoh, odamlar o‘z masalalari bilan yordamga boradigan joy, kishilar)i erdilar.. (170-bet).

Naymon xalqi – bu yerda nayman qabilasiga mansub urug‘. “... Va kuntug‘ar bila qibla oralig‘in uyg‘ur va naymon sipohig‘a berib, Karimberdi otoliq va O‘rozali inoqning uhdasida qildi. Va qibla bila kunbotar mobaynin nukuz-manqit lashkarig‘a tavsif qildi”.

Qo‘shtamg‘ali – qoraqalpoq qabilasining nomi, yana shu nomda ataladigan urug‘ ham bo‘lgan. U oris qo‘ng‘iroq qabila-urug‘ segiz tamg‘ali shullik bo‘limi tarkibiga kirgan. Qo‘shtamg‘ali qabilasi yetti urug‘dan tashkil topgan. Ular Amudaryoning o‘ng qismida yashagan.

Xo‘ja eli (Xo‘jayli) – Munis va Ogahiyning yozishicha, Abulg‘ozixon (1643 – 1663) davrida o‘zbeklar to‘rt tepa, o‘n to‘rt urug‘dan iborat deb hisoblangan.

Xo‘jayli qo‘rg‘oni aholi yashaydigan punktlarning markazlaridan. U karvon yo‘lida joylashgani uchun Shimoliy Xorazmda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yuqorida etnonimlar haqida, uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga olgan “Firdavs ul-iqbol” asarida uchrovchi etnonimlar etimologiyasi, ba’zi urug‘-qabilalar geografiyasi hamda ayrim ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish orqali har qanday etimologiya, xususan, aksari qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Kundan kunga unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, ilmiy tahlilga tortish onomastikaning muhim tarmoqlaridan bo‘lgan etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

“Firdavs ul-iqbol”da uchraydigan etnonimlar lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki xil:

1. Yakka holda uchraydigan etnonimlar: mang‘it, qatag‘an, Chiychut,

qiyot, turk, uyg‘ur, o‘zbek, qozoq.

2. Tarkibida izohli so‘zlar bo‘lgan etnonimlar. Bunda etnonim urug‘, el, xalq so‘zlari bilan birgalikda keladi: ildurkin urug‘i, yasut urug‘i, budat urug‘i, ungut eli, qarluq eli, uyg‘ur eli, qiniqli eli, tatar xalqi, tibet xalqi, jaloyir xalqi kabi. “Firdavs ul-iqbol”da ishlatilgan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. “Firdavs ul-iqbol” tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib chiqqan. Munis va Ogahiylar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma’nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko‘p holda ilmiy jihatdan munozarali bo‘lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko‘rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o‘z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko‘pchiligi mo‘g‘ul tiliga mansub.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983.
2. Мунис ва Огаҳий “Фирдавс ул-иқбол”. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 520 б.
3. Қораев С. Этнонимика.Т., Ўзбекистон, 1979. 23 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Биринчи жилд. – Тошкент: Университет, 2000.
5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Учинчи жилд .– Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати.1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.;
7. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018. 248 б.
8. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б